



СУРУНКАЛИ БУЙРАК ЕТИШМОВЧИЛИГИНИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛ ШАКЛЛАНТИРИШ ФОНИДА ТАЛОҚДАГИ МОРФОМЕТРИК ВА МОРФОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАРИ ЕШГА БОГЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ.

Собиров Шерзод Шодуллоевич

Хасанова Дилноза Ахроровна

Бухоро давлат тиббиёт институти, Ўзбекистан

Долзарблиги. СБЕ - бу буйрак структураси ва функциясининг 3 ой ва ундан ортиқ давр мобайнида бузилиши ва инсон организмига салбий ножўя таъсир кўрсатиши билан ифодаланувчи касаллик ҳисобланади. СБЕ - касалликнинг сабаби, БКФТ (GFR) ва альбуминурия (Albuminuria - (CGA) тоифаси) даражаси буйича таснифланади.

Сутэмизувчиларнинг талоғи доимий аъзо бўлиб, туғилгандан кейинги давр - ювенил, балоғат ва инволюционал ёш давлари фаркланади. Умurtқасиз жонзотларда фагоцитоз қон ҳужайралари ёки кичик ва кўп сонли безлар бажариши ҳақида маълумотлар етарли [Лопатин И.К., Мелешко Ж.Е., 2009, Карташев А.Г., 2010].

Ҳозирги вақтда келиб дунёда иммун тизимнинг шикастланиши билан боғлиқ касалликлар кўпайиб бормокда. Олимларнинг фикрига кўра, бунинг сабабларидан бири сурункали касалликларнинг кўпайиши билан боғлиқ бўлиб, организмнинг ҳимоя функциялари ва мослашув жараёнларининг бузилишига олиб келади [Karmaus W. et al., 2005; Udoji F. et al., 2010].

Талоқнинг энг муҳим вазифаси бу - иммун вазифасидир. Морфологик тузилишида талоқнинг лимфоид тузилмаси асосини оқ пульпа ҳамда унинг қисмлари: периартериал лимфатик муфта, кўпайиш марказлари, мантия, чегара ва периартериал соҳалари бўлган лимфатик тугунлардан ташкил топган. У зарарли моддаларни макрофаглар ёрдамида зарасизлантириш ва қонни тозалашда иштирок этади [Balogh P. et al., 2004, Uddin M.N., 2010].

Қарилик даврида талоқ лимфоид тузилмаларидаги инволютив ўзгаришлари оқибатида организм иммун ҳимояси заифлашиши кузатилади. Каламуш талоғи инсон аъзосига жуда яқин бўлиб, гистологик тузилиши жиҳатидан деярли бири-бирдан фарқ қилмайди [Mebius R. E., 2005].

Эрта ҳомила даврида талоқ четки қирралари юмалоқ кўринишга эга бўлади. Бу даврнинг бошида талоқ тор ва кичикроқ ўлчамли, даврнинг охирида келиб эса янги туғилган чақалоқ талоғига хос бўлган силлиқ бурчакли овал ёки тўртбурчак шаклга эга бўлади. Талоқ юмшоқ консистенцияли бўлиб, ранги тўқ қўнғир тусда, ташқи томондан аъзо паренхимаси билан суст бириккан ва осон ажраладиган капсула билан қопланган ҳолда бўлади [Галеева Э.Н., Железнов Л.М., 2013].

Тадқиқотнинг мақсади. Сурункали буйрак етишмовчилигида талоқ морфологик ва морфометрик параметрларидаги кўрсаткичларини ешга караб киёсий тавсифини ўрганиш.

3-6-9- ойлик давргача бўлган оқ зотсиз соғлом каламушлар талоғидаги морфологик ва морфометрик параметрларини ўрганиш.

Талоқ морфологик ва морфометрик параметрларини СБЕ билан касалланган 3 – 6 - 9 ойлик давргача бўлган оқ зотсиз эркак каламушларнинг параметрларини ўрганиш.

Тадқиқот усуллари.

- микропрепаратларни гематоксилин-эозин билан бўйаш
- микропрепаратларни гистохимия Ван-Гизон усулида бўйаш
- Стрелков жадвалларидан фойдаланиб вариацион статистика методи билан аниқлаш

- ўзгаришларни иммуногистокимёвий усулларда аниқлаш.

Тадқиқот натижалари. Bizning immunogistokimyoviy tadqiqotlarimiz natijalari ko'rsatishicha 3-6-9 oylik davrgacha bo'lgan oq zotsiz kalamushlar eksperimental sharoitda surunkali buyrak yetishmovchiligi fonida taloqdagi immunogistokimyoviy o'zgarishlar yoshga bog'liqligi alohida ahamiyatga ekanligi aniqlanildi.

Surunkali buyrak yetishmovchiligida 3 oyli oq zotsiz kalamushlar taloq to'qimasi gistologik kesmalarini immunogistokimyoviy usulda ishlov berilganda CD 3 markerlari PALS sohasida kuchli ekspressiyasi, qizil pulpada o'rtacha ekspressiyasilanishi aniqlaniladi. Demak, bu sohalarda T-limfositlar immunitetda qatnashadigan o'zuda CD 3 antigeni bo'lgan PALS soha kuchli, qizil pulpaning taloq tasmalarida esa o'rtacha eksperssiyalanishi aniqlanildi. CD 20 markeri oq pulpada negative ekspressiyasilanishi va qizil pulpada esa kuchsiz ekspressiyalanishi B limfositlarning kuchsiz proliferatsiyalanishidan darak beradi. CD20 markerning ekspressiyalanishidan unga taluqli bo'lgan limfositlar o'lchamlarining har xilligi, ularning tarkibida B limfositlar, limfositlar immunoblastlar va plazmatik hujayralar borligini ko'rsatadi. B limfositlar infeksiya tasirida somatic gipermutatsiya amalga oshib, B limfositlarda yuqori aktivlikdagi retseptorlar ko'p miqdorda shakllanganligidan dalolat beradi. Natijada uzoq yashovchi plazmatik hujayralar paydo bo'lganligi kuzatiladi.

kon

XULOSA. 3 oylik oq zotsiz kalamushlar talog'ining cho'zinchoq shaklda, qonga to'lib turishi tufayli to'q qizil rangli bo'ladi. Uni tashqi tomondan seroz parda va nozik fibroz kapsula o'rab turadi. Kapsuladan taloq ichiga to'siqlar-trabekulalar o'sib kiradi. Trabekulalar juda ham nozik ko'rinishda (Van-Gizon bilan bo'yalganda biroz och pushti rangli sohani ko'rishimiz mumkin). Trabekulalar taloqni uncha yaxshi ifodalanmagan bo'lakchalarga bo'ladi. Trabekulalar orasida oq va qizil pulpa



bo`ladi. Oq pulpa hajmi kichik, qizil pulpaning hajmi esa oq pulpaga nisbatan 3-4 barobar katta bo`ladi.

6 oylik oq zotsiz kalamushlar talog`ining cho`zinchoq shaklda , qonga to`lib turishi tufayli to`q qizil rangli bo`ladi. Uni tashqi tomondan seroz parda va fibroz kapsula o`rab turadi. Kapsuladan taloq ichiga to`siqlar-trabekulalar o`sib kiradi. Trabekulalar va qon tomirlar devori qalinlashgan (Van-Gizon bilan bo`yalganda biroz pushti rangli sohani ko`rishimiz mumkin). Trabekulalar taloqni uncha yaxshi ifodalanmagan bo`lakchalarga bo`ladi. Trabekulalar orasida oq va qizil pulpa bo`ladi. Oq pulpa hajmi kichik, qizil pulpaning hajmi esa oq pulpaga nisbatan 2-3 barobar katta bo`ladi.

9 oylik oq zotsiz kalamushlar talog`ining cho`zinchoq shaklda , qonga to`lib turishi tufayli to`q qizil rangli bo`ladi. Uni tashqi tomondan seroz parda va zich fibroz kapsula o`rab turadi. Kapsuladan taloq ichiga to`siqlar-trabekulalar o`sib kiradi. Trabekulalar va qon tomirlar devori qalinlashgan, mustahkam (Van-Gizon bilan bo`yalganda pushti rangli sohani ko`rishimiz mumkin). Trabekulalar taloqni uncha yaxshi ifodalanmagan bo`lakchalarga bo`ladi. Trabekulalar orasida oq va qizil pulpa bo`ladi. Oq pulpa hajmi kattalashgan, qizil pulpaning hajmi keng, qizil pulpa , oq pulpaga nisbatan 1-2 barobar katta bo`lgan.